

**RAQAMLI DISKURSDA ANTROPONIMLARNING PRAGMATIK
RESEMANTIZATSIYASI VA PEJORATIVLASHUV JARAYONI
(“Zaynab” ismi misolida)**

Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti,

filologiya fanlari doktori, DSc

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya muhitida antroponimlarning pragmatik resemantizatsiyasi jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida “Zaynab” ismi tanlanib, uning tarixiy-madaniy semantik og'irligi hamda zamonaviy yoshlar subkulturasi diskursida yuzaga kelgan fonetik kontaminatsiya asosidagi konnotativ siljishlar o'rganiladi. Tadqiqotda diskursiv tahlil, pragmatolingvistik yondashuv hamda kuzatuv metodi qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, internet-slang va memetik tafakkur antroponimlarni ham subkultural o'yin maydoniga aylantirmoqda. Biroq tarixiy va diniy semantik asosga ega ismlarning to'liq stigmatizatsiyaga uchrashi ehtimoli past. Maqolada avlodlararo semantik tafovut, fonetik kontaminatsiya va pejorativlashuv mexanizmlari konseptual jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: antroponim, resemantizatsiya, pejorativlashuv, raqamli diskurs, fonetik kontaminatsiya, yoshlar slengi, stigma, memetika.

**THE PROCESS OF PRAGMATIC RESEMANTIZATION AND
PEJORATIZATION OF ANTHROPONYMS IN DIGITAL DISCOURSE
(using the name “Zaynab”)**

Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi

Associate Professor of the Samarkand State Pedagogical Institute,

Doctor of Philological Sciences, DSc

Abstract. *This article analyzes the process of pragmatic resemantization of anthroponyms in the digital communication environment. The object of the research is the name "Zaynab," its historical and cultural semantic load, as well as connotative shifts based on phonetic contamination in the discourse of modern youth subculture. The study used discursive analysis, pragmalinguistic approach, and observation method. The results show that internet slang and memetic thinking transform anthroponyms into a subcultural playground. However, the probability of complete stigmatization of names with a historical and religious semantic basis is low. The article conceptually substantiates intergenerational semantic differences, phonetic contamination, and pejorative mechanisms.*

Keywords: *anthroponym, resemantization, pejorativlashuv, digital discourse, phonetic contamination, youth slengi, stigma, memetika.*

**ПРОЦЕСС ПРАГМАТИЧЕСКОЙ РЕСЕМАНТИЗАЦИИ И
ПЕЙОРАТИВАЦИИ АНТРОПОНИМОВ В ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ
(на примере имени «Зайнаб»)**

Аноркулова Озода Низомжон кизи

доцент Самаркандского государственного педагогического института,

доктор филологических наук, DSc

Аннотация. *В данной статье анализируется процесс прагматической ресемантизации антропонимов в среде цифровой коммуникации. В качестве объекта исследования выбрано имя "Зайнаб," изучается его историко-культурная семантическая нагрузка и коннотативные сдвиги, основанные на фонетической контаминации, возникшей в дискурсе современной молодежной субкультуры. В исследовании использовались дискурсивный анализ, прагмалингвистический подход и метод наблюдения. Результаты показывают, что интернет-сленг и меметическое мышление превращают антропонимы в субкультурную игровую площадку. Однако маловероятно, что имена с*

исторической и религиозной семантической основой подвергнутся полной стигматизации. В статье концептуально обоснованы механизмы межпоколенческой семантической разницы, фонетической контаминации и пейоративации.

Ключевые слова: антропоним, ресемантизация, пейоративация, цифровой дискурс, фонетическая контаминация, молодежный сленг, стигма, меметика.

XXI asrning raqamli kommunikatsiya muhiti til tizimining barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, internet diskursida shakllanayotgan yoshlar slengi va memetik kommunikatsiya¹ an'anaviy semantik barqaror birliklarni ham yangi konnotativ jarayonlarga tortmoqda. So'nggi yillarda nafaqat umumleksik birliklar, balki antroponimlar ham pragmatik qayta talqin qilinayotganini kuzatish mumkin. Antroponimlar, odatda, madaniy xotira va kollektiv identitetning barqaror komponenti hisoblanadi. Masalan, "Zaynab" ismi islomiy tarixda muhim shaxs nomi bilan bog'liq (Zaynab bintu Muhammad) hamda o'zbek adabiy tafakkurida ijobiy estetik konnotatsiyaga ega bo'lgan nomlash an'alarida qo'llangan (qarang: Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asari qahramoni). Shu bois bunday ismlar semantik jihatdan yuqori darajada barqaror hisoblanadi. Biroq zamonaviy yoshlar diskursida fonetik o'xshashlik asosida ayrim antroponimlarning salbiy yoki kulgi konnotatsiyasi bilan bog'lanishi kuzatilmoqda. Mazkur maqolada aynan shu jarayon, ya'ni antroponimlarning pragmatik resemantizatsiyasi (so'zning ma'nosini qayta ishlash va yangi konnotatsiya hosil qilish jarayoni) va vaqtinchalik pejorativlashuvi (*neytral yoki ijobiy ma'noga ega so'zning salbiy yoki haqoratli konnotatsiya kasb etish jarayoni*) lingvistik va diskursiv jihatdan tahlil qilinadi.

Onomastik birliklar, xususan antroponimlar, til tizimining maxsus qatlamini tashkil etadi. Ular oddiy nominativ birlik emas, balki madaniy xotira, kollektiv identitet va aksiologik qadriyatlarni mujassamlashtiruvchi semantik konstruksiyalardir. Antroponimlar ko'pincha tarixiy, diniy va estetik asosga ega bo'lib, shu sababli

¹ Mem atamasi birinchi bo'lib Richard Dawkinsning "The Selfish Gene" kitobida paydo bo'lgan. U madaniy birlikni bildiradi: g'oya, hazil, ibora, tasvir yoki shablon, u odamlar orasida ko'chib yuradi va ommalashadi. Memetik kommunikatsiya esa internet va raqamli muhitda memlar orqali axborot tarqatish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayoni. Misol uchun, memlar orqali hazil, kulgi, tanqid yoki qarashlarni tez va keng tarqatish mumkin.

ularning semantik yadrosi nisbatan barqaror hisoblanadi. Masalan, “Zaynab” ismi islomiy tarixda muhim shaxs nomi bilan bog‘liq hamda musulmon xalqlar nomlash an‘analarida ma‘naviy poklik, sabr va iffat timsoli sifatida talqin etiladi. E.Begmatov mazkur ismni quyidagicha izohlaydi: arabcha, to‘liqdan kelgan, semiz; kelishgan, go‘zal. Zahnab nomi Muhammad (sav) qizining ismi bo‘lgan¹. O‘zbek adabiy-estetik tafakkurida ham islomiy ayol ismlari ijobiy konnotativ yuklamaga ega bo‘lgan.

Shu jihatdan, antroponimlar “yuqori semantik inertlik”ka ega birliklar sifatida tavsiflanadi. Ya’ni ular umumleksik birliklarga nisbatan tez-tez ma’no siljishiga uchramaydi. Biroq raqamli kommunikatsiya muhiti bu barqarorlikni nisbiylashtirmoqda. Raqamli diskursning asosiy xususiyatlari *tezkorlik, interaktivlik, anonimlik va subkultural segmentatsiya*dir. Internet muhitida til nafaqat kommunikativ vosita, balki identifikatsion marker vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, yoshlar nutqida sleng va memetik birliklar “ichki guruh kodi” sifatida ishlaydi. Memetik semantika sharoitida so‘zning asosiy lug‘aviy ma’nosidan ko‘ra uning assotsiativ va konnotativ potensiali muhimroq bo‘ladi. Fonetik o‘xshashlik, grafemik o‘yin, qisqartma va parodiya kabi mexanizmlar orqali yangi pragmatik yuklama hosil qilinadi. Mazkur jarayonda ma’no ko‘chishi ko‘pincha semantik emas, balki pragmatik xarakterga ega bo‘ladi. So‘zning denotativ yadrosi saqlanadi, biroq uning ijtimoiy konnotatsiyasi vaqtinchalik o‘zgaradi. Bu hodisani pragmatik resemantizatsiya deb atash mumkin.

Pejorativlashuv – neytral yoki ijobiy birlikning salbiy konnotatsiya kasb etish jarayoni. An’anaviy til taraqqiyotida bu jarayon ijtimoiy stereotiplar, ideologik siljishlar yoki metaforik kengayish orqali yuz beradi. Raqamli diskursda esa yangi mexanizm fonetik kontaminatsiya faol ishlamoqda. Fonetik kontaminatsiya tovush jihatdan o‘xshash birliklarning assotsiativ yaqinlashuvi natijasida ma’no yuqtirish jarayonidir. Internet muhitida rus tilidagi vulgarizm “заябал” (sleng shakli “zaybal”) keng qo‘llanadi. Mazkur birlik “jonimga tegdi”, “bezor qildi” mazmunida ishlatilsa-da, u o‘z tabiatiga ko‘ra nihoyatda qo‘pol va so‘kinish xarakteriga ega. Fonetik jihatdan bu so‘zning o‘zbek tilidagi “Zaynab” shakliga yaqinligi ayrim yoshlar segmentida kulgi va tabu effekti hosil qilishi mumkin. Biroq bu erda muhim jihat shundaki, ma’no ko‘chishi

¹ Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi: (Izohli lug‘at). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 – 608 b. 145-bet.

semantik asosga emas, balki fonetik-assotsiativ o'xshashlikka tayanadi. Natijada antroponimning denotativ ma'nosi o'zgarmaydi, ammo vaqtinchalik pragmatik konnotatsiya yuzaga keladi.

Bu jarayon barqaror stigma shakllanishi uchun etarli asos bo'la olmaydi, chunki:

1. Antroponimning tarixiy-madaniy semantik og'irligi kuchli;
2. Salbiy assotsiatsiya institutsional diskurs tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi;
3. Jarayon subkultural va segmentar xarakterga ega.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda "Zaynab" ismi keng tarqalgan ba'zi qo'pol va haqoratli iboralar o'rnida ishlatilmoqda. Ushbu fenomen fonetik kontaminatsiya natijasida yuzaga kelgan memetik resemantizatsiyaning amaliy ko'rinishi sifatida qaraladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoq vakillari, blogerlar va yoshlar orasida mashhur bo'lgan memlar orqali bu talqin keng yoyildi. Natijada, tarixiy va diniy ahamiyatga ega bo'lgan antroponim yoshlar ongida vaqtinchalik pejorativ va hazil-konnotatsiyali kod sifatida qabul qilinmoqda. Bu holat raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlar nutqining dinamik o'zgarishini, subkultural kodlash va pragmatik resemantizatsiya jarayonlarini yaqqol namoyon qiladi. Shu bilan birga, yosh avlodning bunday yangi nutqiy birliklarni qabul qilishi, ularning semantik tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Demak, mazkur hodisa tilning buzilishi emas, balki raqamli kommunikatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan pragmatik o'yin mexanizmi sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Oilaviy kuzatuv natijasida televizorda namoyish etilgan serialda bosh qahramon "Zaynab" ismini ishlatgan paytda bolalarning yuz ifodasi va nutqi diqqat bilan kuzatildi. Bolalarning reaksiyasi quyidagi jihatlarni ko'rsatdi:

1. **Kulgi va bir-biriga qarash** – ismni salbiy yoki "taqiqlangan" kod sifatida qabul qilish.
2. **Savol va aniqlash** – "Bu yomon so'zmi?" degan izoh orqali ismning ijtimoiy kodlashga tortilganligini tushunish istagi.
3. **Fonetik assotsiatsiya** – bolalar so'zning asl ma'nosini bilmasdan, internet slengdagi varnat bilan fonetik o'xshashlikni sezishdi.

Bu kuzatuv shuni ko'rsatadiki, yosh avlod **semantik yadroga emas, balki ijtimoiy-konnotativ qatlamga e'tibor qaratadi**. Ular uchun so'zning lug'aviy ma'nosi ikkinchi darajali bo'lib, asosiy e'tibor "taqiqlangan kulgi".

"Zaynab" ismining fonetik yaqinligi quyidagi jarayonlarni yuzaga keltirdi:

- **Assotsiativ yaqinlashuv** – bolalar ismni o'zaro bog'lab, kulgili konnotatsiya hosil qildi.
- **Tabu effekti** – ismni eshitganida uyalish yoki shubha paydo bo'ldi, bu ijtimoiy kodlashning tabiiy ko'rinishi.
- **Vaqtinchalik pejorativlik** – ismning asl lug'aviy va diniy ma'nosi saqlanib qoldi, ammo subkultural kontekstda vaqtinchalik salbiy yuk oldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, fonetik kontaminatsiya asosida yuzaga kelgan bu jarayon **barqaror stigma hosil qilmaydi**, chunki:

1. Tarixiy va madaniy semantik asos kuchli;
2. Salbiy konnotatsiya faqat subkultural segmentda mavjud;
3. Rasmiy va akademik diskursda ism toza va ijobiy konnotatsiyada ishlatiladi.

Pragmatik resemantizatsiya jarayoni quyidagi darajalarda ko'rinadi:

1. **Diskursiv daraja** – subkultural va internet muhitida ismga vaqtinchalik salbiy pragmatik yuklanadi.
2. **Shaxsiy daraja** – bolalar ismni o'zaro kulgi va qiziqish kodi sifatida qabul qiladi.
3. **Madaniy daraja** – tarixiy-diniy ma'no saqlanadi, bu ismni to'liq stigmatizatsiyadan himoya qiladi.

Demak, pragmatik resemantizatsiya **so'zning denotativ yadrosini emas, balki subkultural va interaktiv konnotatsiyasini o'zgartiradi**.

Tahlil shuni ko'rsatadiki,

- Katta avlod (ota-onalar, filologlar) uchun "Zaynab" – tarixiy shaxs, diniy iffat, adabiy estetik qadriyat.
- Yosh avlod (10–15 yosh) uchun "Zaynab" – fonetik kulgi kodi, internet slengi bilan assotsiatsiya.

Bu tafovut *avlodlararo semantik siljishni* ko'rsatadi va raqamli subkulturada antroponimlar ustida yuzaga kelayotgan vaqtinchalik pragmatik o'yinlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, barqaror semantik asos ismlarni stigmatizatsiyadan himoya qiladi.

Ushbu kuzatuv va tahlil bir nechta ilmiy va amaliy xulosalarni beradi:

1. Raqamli subkultura yoshlarning semantik qabuliga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa antroponimlarni ham "subkultural o'yin maydoni"ga tortadi.
2. Fonetik kontaminatsiya asosida yuzaga kelgan vaqtinchalik pejorativlik so'zning denotativ ma'nosini buzmaydi.
3. Tarixiy, diniy va madaniy og'irlikka ega ismlar (masalan, Zaynab) vaqtinchalik subkultural salbiy konnotatsiyalarga qarshi barqarorlikni saqlaydi.
4. Pedagogik yondashuv va ota-onaning tushuntirishi yosh avlodning semantik tafakkurini normativ yo'nalishda qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Maqolada "Zaynab" ismining raqamli kommunikatsiya va memetik subkultural muhitdagi tahlili orqali antroponimlarning pragmatik resemantizatsiyasi, fonetik kontaminatsiya va vaqtinchalik pejorativlashuvi jarayonlari o'rganildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki:

Tilning ijtimoiy tabiatiga ta'siri: ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar va yoshlar memlari orqali til birliklari (shu jumladan antroponimlar) tezkor va dinamik tarzda yangi konnotatsiya hosil qilmoqda. Fonetik o'xshashliklar asosida yuzaga kelgan kontaminatsiya va memetik ressemantizatsiya, yoshlar ongida tarixiy va diniy qadriyatlarga ega so'zlarni vaqtinchalik pejorativ yoki hazil kodi sifatida qabul qilinishiga olib keladi. Bu holat tilning ijtimoiy tabiatini ya'ni so'z va iboralarning faqat lug'aviy ma'nosi emas, balki ijtimoiy-kontekstga bog'liq dinamikligi yaqqol ko'rsatadi.

Oqibatlari: yoshlar orasida tarixiy va madaniy ahamiyatga ega ismlarning vaqtinchalik stigmatizatsiyalanishi; nutqning subkultural va memetik qatlamida yangi, ba'zan salbiy pragmatik yuklamalarning yuzaga kelishi; avlodlararo semantik tafovut kuchayishi: katta avlod ismlarni tarixiy va diniy kontekstda, yosh avlod esa fonetik va subkultural kod sifatida qabul qiladi.

Kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni bartaraf etish uchun quyidagicha yondashuvlarni taklif etiladi:

Pedagogik yondashuv: ota-onalar, o'qituvchilar va madaniy ta'lim vakillari yoshlarni ismning asl ma'nosi, tarixiy va diniy qadriyati bilan tanishtirishi;

Ijtimoiy media va blogerlar bilan hamkorlik: kontent yaratuvchilar yoshlar nutqiga ijobiy va madaniy jihatdan boy ma'nolarni singdiruvchi materiallar tayyorlashiga undash;

Lingvistik monitoring: raqamli muhitdagi sleng va memlarning semantik oqibatlarini kuzatish, so'zlarning vaqtinchalik pejorativ yuklamalarini tahlil qilish;

Madaniy va onomastik tadqiqotlar: yoshlar nutqida yuzaga kelayotgan fonetik kontaminatsiya va ressemantizatsiyani o'rganish orqali, ijtimoiy hamda lingvistik barqarorlikni saqlash.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli muhit tilning ijtimoiy tabiatini yanada ko'rsatmoqda. Endilikda so'zlar va antroponimlar faqat lug'aviy ma'noga ega bo'lmay, subkultural va memetik konnotatsiya orqali yoshlar ongida yangi, ba'zan vaqtinchalik salbiy kodlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega so'zlarni himoya qilish, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirish tilni barqaror, boy va ijtimoiy jihatdan sog'lom holda saqlashning asosiy yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
2. Begmatov E.. O'zbek onomastikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
3. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
4. George Yule. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
5. David Crystal. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
6. T. van Deyk. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.